YANGI O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY O‘ZGARISHLAR ZAMIRIDA DEMOKRATIK JARAYONLARINING YUKSALISHI VA XALQ ISHONCHINING TA’MINLANISHI

Kurbanov E., Guliston davlat universiteti, “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchi, e-mail: eldor_gdu@mail.ru
Ochilov I., Guliston davlat universiteti, talaba.

Annotatsiya. maqolada jaxon xamjamiyatida bo‘lgan kabi O‘zbekistonda ham demokratik sohada katta o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi, davlat va jamiyat o‘rtasida siyosiy masofa kamayib borishi, davlatning demokratlashuvi masalasidagi siyosiy kontseptsilar taxlil qilingan. Qolaversa yurtimizda davlatning fuqarolar orasida ishonchini ortishiga sabab bo‘lgan islohotlar, dinamik o‘zgarishlar tadqiqotlar natijasida yoritib berishga xarakat qilingan.

Kalit so‘zlar: siyosat, jamiyat, samarali islohotlar, siyosiy makon, siyosiy etakchi, muloqot demokratiyasi, Xalq qabulxonasi.

ПРОЦВЕТАНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДОВЕРИЯ НАРОДА В ОСНОВЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПЕРЕМЕН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. в статье анализируется тот факт, что в демократической сфере Узбекистана, а также в мировом сообществе произошли большие изменения, политическая дистанция между государством и обществом сокращается, а политические концепции по вопросу демократизации состояние. Более того, в результате исследований были предприняты попытки выяснить реформы и динамические изменения, которые вызвали рост доверия к государству среди граждан в нашей стране.

Ключевые слова: политика, общество, эффективные реформы, политическое место, политическое лидерство, диалог, демократия, Народная приемная.

PROSPERITY OF DEMOCRATIC PROCESSES AND ENSURING PEOPLE’S TRUST AT THE BASIS OF POLITICAL CHANGE IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation. the article analyzes the fact that great changes have taken place in the democratic sphere in Uzbekistan, as well as in the world community, the political distance between the state and society is decreasing, and the political concepts on the issue of democratization of the state. Moreover, as a result of the researches, the

reforms and dynamic changes that caused the increase of the trust of the state among the citizens in our country were tried to be clarified.

Keywords: politics, society, effective reforms, political place, political leader, dialogue democracy, People's Reception.

Kirish.

Siyosat – o‘z tabiatiga ko‘ra, jamiyatdagi barcha voqea va hodisalar, birinchi navbatda, undagi jarayonlarning yo‘nalishi, xususiyatlarini ko‘rsatib turuvchi, ayni paytda mamlakat hayotining strategik maqsadlarini ifodalab turuvchi muhim hodisadir. Ayni paytda, ko‘pchilik dunyo olimlari xulosa qilayotganlaridek, siyosatning eng muhim jihatlaridan biri bu uning dinamik mohiyatga ega ekanligidadir.

Nemis olimi T.Shabert ta’biri bilan aytganda: “Odamlar ijodiy mavjudotlardir va siyosat odamlar ijodining mahsulidir. Odamlar siyosat bilan shug‘ullanar ekanlar, tinimsiz yaratib boradilar. Siyosat bu – sof ijod mahsulidir. Siyosat universal hodisadir” [1, 25-26].

Shu bois ham jamiyat miqyosida siyosat omili mohiyati, institutsional asoslari va g‘oyalarida o‘zgarishlarning ro‘y berishi mamlakat hayotining barcha jabhalarida, birinchi navbatda jamiyat siyosiy tizimining faoliyat tartibida va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish printsiplarida jiddiy ravishdagi yangilanishlarga sabab bo‘ladi.

Asosiy qism. Demokratik taraqqiyotni o‘zining bosh maqsadi sifatida belgilab olgan mamlakatda demokratiyaning yangi manbalarini izlab topish va siyosiy amaliyotga kiritish uchun yangi va yanada kengroq o‘lchamdagi imkoniyatlar ochilib boradi.

Chunki, “ko‘pchilik olimlar g‘oyasiga ko‘ra, aslida har qanday rivojlanish siyosiy o‘zgarishlar zaminida ro‘y beradi va yuksalish jarayonlarini anglatadi” [1, 322 b.].

Yuksalish – demokratiya va demokratlashuvning eng muhim sharti hisoblanadi. Jamiyatda izchillikda davom etadigan yuksalish hodisasi tufayli fuqarolarning demokratlashuv mohiyatiga ega bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlardagi ishtiroki uchun shart-sharoitlar kengayib boradi.

Tahlillardan ma’lum bo‘layoganidek, yangilangan “siyosiy makon”ning vujudga kelishi o‘z navbatida “yangi “siyosiy vaqt”ning, jarayonlar ro‘y berayotgan eng zamonaviy bosqichning amal qilishiga asos soladi” [2, 56-58 b.].

Demak, yangi davr rivojlanishining yangi bosqichini boshlanishni jamiyat hayotini keskin zamonaviylashtirish, demokratik taraqqiyot borasida yangi siyosiy g‘oyalarni real asoslar bilan ilgari surish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shuning uchun ham siyosiy g‘oya omili siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berishining eng muhim bunyodkor kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, siyosiy g‘oya o‘zining funktsional asoslariga ko‘ra, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy asoslari, strategik maqsadlarini yangilashning mafkuraviy zaminlarini ifodalab beradi. Shuning uchun ilgari surilayotgan siyosiy g‘oyaning mazmun-mohiyati yangi demokratik taraqqiyot manfaatlarini qanchalik darajada o‘zida chuqur ifodalay olsa, demokratiyaning yangi pog‘onaga ko‘tarilishi uchun imkoniyatlar ko‘lami ortib boradi. Jumladan, bugungi

kunda jahon miqyosida yana o‘zining ahamiyatini tiklab borayotgan liberal siyosiy g‘oyalar turli mamlakatlar, jamiyatlarda demokratiyaning yangi jihatlarini ochilishida o‘ziga xos asos bo‘lib ham xizmat qilmoqda.

Demokratiyaning ko‘z ilg‘amas tomonlarini ilmiy jihatdan oydinlashtirishga tinimsiz intilib kelayotgan olim F.Zakariya e’tirof qilganidek: “Keng ko‘lamli demokratlashuv uchun liber xarakterdagi islohot bosqichi zarur bo‘ladi” [3, 148].

Bundan tashqari jamiyatning demokratlashuv jarayoni davlatning o‘rni ham yuqori. Zero demokratiyaning gullashi va tarannum etishi uchun kuchli davlat ta’siri va uning istagi zarurdir [4, 30].

Davlat salohiyati bilan demokratiya hamda mamlakatdagi demokratlashuv jarayoni o‘rtasida kuchli aloqadorlik mavjud. Ularning har ikkisi o‘zaro bir-birlarining ko‘magi bilan jamiyatning eng yaqin talablarini hisobga olgan holda rivojlana oladi. Bunday rivojlanishning mohiyatini asosan, davlat strategik imkoniyatlari kuchayishi, jamiyatda inson erkinliklari, haq-huquqlari va ijtimoiy adolat printsiplarining kengayib borishi tashkil etadi. Ushbu qonuniyat zamonaviy demokratik yuksalishning etakchi asosi bo‘ladi.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni mantiqiy davomi sifatida aytib o‘tish lozimki, siyosiy g‘oyaning jamiyat demokratlashuvi va umuman milliy yuksalish manfaatlaridan kelib chiqib ilgari surilishida siyosiy lider, yetakchi omilining roli va ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Tahlillar buni ko‘rsatib turganidek, siyosiy yetakchi faoliyatida jamiyat rivojini ta’minlashning yangi va ilmiy asoslangan siyosiy yuksalish resurslarini ishga tushirib yuborilishi bilan mamlakat miqyosida yuzaga chiquvchi siyosiy o‘zgarishlar jarayonlari jamiyat kompleks va konstruktiv rivojlanishining bosh manbaiga aylanadi. Demak, demokratiya g‘oyalarini o‘zida tobora chuqurroq ifoda etadigan davlat va uning siyosati oxir-oqibatda demokratik siyosiy o‘zgarishlarning kafolatli manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday davlat siyosatining namoyon bo‘lishi uning fundamental asosi, davlat siyosatining zamini, huquqiy manbai bo‘lgan qonunlarning yuqori darajada bajarilayotganligi bilan chambarchas bog‘liq. Davlat siyosatining samaradorligi kuchi ham uning falsafiy, kontseptual, strategik asoslarining demokratik huquqiy maydonda o‘zaro hamkorlikda amal qilishiga qarab namoyon bo‘ladi.

Siyosiy liderning davlat, jamiyat va uni taraqqiy ettirish borasidagi siyosiy g‘oyalari hamda ularni bevosita amalga oshirish bo‘yicha qabul qiladigan eng dolzarb siyosiy qarorlarining demokratiya qadriyatlari va qoidalari bilan uzviylashuvi mamlakatni riojlanishi, siyosiy o‘zgarishlarning faqat va faqat samara beruvchi demokratik yangilanishlar tomon yo‘nalishini tashkil etib boradi.

Chunki, “siyosiy lider yetakchi davlat, jamiyat hayotiga doimiy ravishda va hal qiluvchi ta’sir o‘tkaza oluvchi shaxsdir. G‘arb olimi F.Fidler tomonidan siyosiy yetakchilikning samarali modeli ham asoslab berildi” [5, 208].

Jamiyatlarni yuksaltirishning mazkur muhim qonuniyatlariga tayangan holda, bizning mamlakatimizda 2016 yilning dekabr oyidan boshlab shu davrga qadar, ya’ni 25 yil davomida mustaqil demokratik rivojlanish bo‘yicha erishilgan yutuqlar, siyosiy-ijtimoiy zaminlarga tayanilgan holda, ya’ni milliy tiklanish bosqichining

muhim samaralari negizida yurtimiz miqyosidagi yangi, eng zamonaviy siyosiy g‘oyalarni o‘zida ifoda etuvchi siyosiy o‘zgarishlar boshlandi.

O‘z navbatida, mazkur jarayonlar demokratik yangilanishlar, demokratiyaning g‘oyaviy va institutsional faktorlarini yuksak darajada rivojlantirish bo‘yicha yanada kuchliroq imkoniyatlarni ochilishiga zamin yaratdi.

Ma’lumki, 2016-yilning 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga yangi demokratik saylov o‘tkazildi. Izchil demokratizm printsiplariga tayanib o‘tkazilgan mazkur saylov mamlakatimiz Konstitutsiyasining 96 hamda 117-moddalariga, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 8-moddasi, shuningdek, “Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi Qonunning 5 hamda 9-moddalari normalariga monand ravishda o‘tkazildi.

Ma’lumki, saylovlarda mamlakatimizda amalda bo‘lgan to‘rtta siyosiy partiyalar o‘z nomzodlari bilan ishtirok etdilar. Yuksak konstitutsiyaviylik, oshkoralik, halollik va raqobat asosida o‘tkazilgan ushbu saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi tomonidan ko‘rsatilgan nomzod “Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 15 million 906 ming 724 ovoz, ya’ni saylovda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozi bilan g‘alaba qozondi” [6].

Aytish mumkinki, mazkur tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan, mamlakatimiz hayotiga buyuk siyosiy o‘zgarishlarni olib kirilishiga asos solgan saylovlar ayni paytda “barcha fuqarolarni yana bir marta siyosiy va ijtimoiy sinovdan o‘tkazdi. Ularning mamlakat taqdiriga, Vatan istiqboliga va har bir inson kelajagiga befarq emasligini, ovoz berish mas’uliyatini chuqur his etganligini ko‘rsatdi... Prezidentlikka nomzod Sh.Mirziyoyev saylovchilar bilan uchrashuvda o‘zining nomzodlik dasturini e’lon qildi. Ushbu dastur o‘zining serqirraligi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olganligi, xalqchil va samimiyligi, ichki va tashqi siyosatda esa qat’iy pozitsiyaga ega ekanligi bilan yaqqol ko‘zga tashlandi” [7, 7-8 b.].

Demokratiya va uning gumanistik g‘oyalarini izchil rivojlantirishning beqiyos katta manbai bo‘lib xizmat qilgan ushbu saylov, yurtimizda demokratik siyosiy-ijtimoiy yuksalishning, davlat siyosati zamonaviylashuvining muhim tamal-toshi bo‘lib xizmat qildi.

Saylov natijalarining biz, avvalo, vatandoshlarimizning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga, yaqin va olis istiqbol uchun belgilab olingan strategik taraqqiyot dasturimizga bergan xolis va haqqoniy bahosi, deb qabul qilamiz” [8, 6].

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining Qo‘shma Majlisidagi mazkur nutqida kelgusida yangi demokratik O‘zbekistonni barpo qilishning kontseptual siyosiy g‘oyalari, strategik yo‘nalishlari nihoyatda ilmiy, real tarzda asoslandi. Demokratiya rivojlanishning izchil siyosiy Dasturi ifodalandi. Va ayni paytda Prezidentimizning siyosiy yetakchi sifatidagi innovatsion g‘oyalari, xalq manfaatlari, inson ehtiyojlarini demokratiya printsiplari, imkoniyatlariga asoslanib ta’minlashning davlat siyosatida ifodalanuvchi konkret

yo‘llari ko‘rsatib berildi” [7, 9]. Yurtboshimizning faoliyatida xalqona boshqaruv, xalqqa yaqinlik hissi, ularning kundalik tashvish va quvonchlariga sherik bo‘lish tuyg‘usi ustuvorlik qiladi. Bu davlat bilan jamiyat, davlat rahbari bilan fuqarolar maqsadlarining teranligiga, ular orasidagi munosabatlarning uyg‘unligiga olib keldi. Mamlakatda Ishonch parametrlarining kommunikativ ko‘priklari barpo etildi desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablarini qat’iy va so‘zsiz bajarish, qonun ustuvorligini ta’minlash, mamlakatimizda kelajakda amalga oshiriladigan islohot va o‘zgarishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, eng muhimi mamlakatda adolat tamoyilini so‘zda emas, amalda ko‘rsatish xarakatining yangi davri boshlandi. Zero bu borada, sohibqiron Amir Temur bobomizning “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” [9] degan chuqur ma’noli so‘zlari mamlakatning barcha fuqarolari uchun hayotiy e’tiqodga aylandi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirishda ilgaridek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi.

Aholi bilan doimiy muloqot qilish, uning qonuniy talablari, so‘rov va takliflarini hamda ularning hayotida ijobiy o‘zgarishlarni bugungi kunni o‘zida amalga oshirish maqsadida Prezident Sh.Mirziyoyev **“nou-xau”**si hisoblangan davlat va uning fuqarolari o‘rtasidagi real “kommunikatsiya tizimi” deb tan olingan Xalq qabulxonasi va Virtual qabulxonalarning joriy etilishi demokratiya printsiplariga qo‘yilgan yangi qadamdim.

Yurtboshimiz xulosa qilganidek: “haqli savol paydo bo‘ladi: odamning manfaatini ta’minlash uchun avvalo u bilan gaplashish, muloqot qilish kerak emasmi? Muloqot va manfaat degan tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘liq emasmi? Shu ma’noda, biz – el-yurt ishonch bildirgan rahbarlar xalqimiz bilan avvalo o‘zimiz muloqot qilmasak, uning dard-u muammolarini eshitib, o‘zimiz hal etmasak, jamiyatimizning ijtimoiy kayfiyatidan doimo xabardor bo‘lib yashamasak, bizning o‘rnimizga chetdan keladigan, qo‘shtirnoq ichidagi “mehribonlar”, albatta, topiladi...Shu bois odamlarning og‘irini engil qilish, aholining davlat idoralariga ishonchini mustahkamlash maqsadida har bir hududda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxona tashkil etilganidan xabardorsiz, albatta” [10, 199-200 b.].

Xalq qabulxonalari nisbatan qisqa muddat ichida o‘zining samarador ekanligini namoyish etdi. Ayni paytda, fuqarolarning demokratik manfaatlarini qondirish borasida ancha to‘planib qolgan muammolarni ham ko‘rsatib berdi hamda ularni xal qilish mexanizmi, demokratiyaning muhim instituti va vositasi sifatida o‘zini namoyon qildi.

Boshqa bir muhim jihat shundaki, mamlakatimizda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi fuqarolar murojaatlari bo‘yicha demokratik imkoniyatlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab berdi.

Mamlakatimizda siyosiy o‘zgarishlar, yangilanishlar jarayonlarini keng ko‘lamli va jadal ravishda yuz berishida eng zamonaviy siyosiy g‘oya mahsuli sifatida e’tirof qilingan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yilning 7 fevralida qabul qilingan PF-4947-son Farmoni besh ustuvor yo‘nalishida hamda Harakatlar strategiyasini izchillik asosida amalga oshirilishi bilan respublikamizda to‘liq yangi mazmun-mohiyatiga ega bo‘lgan innovatsion siyosiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, jamiyatimizda zamonaviy dunyo taraqqiyotining “postmodern” davriga xos bo‘lgan, ayni paytda mamlakatimiz ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiquvchi va XXI asr talablariga mos bo‘lgan rivojlanishning yangi eshiklari ochildi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan yurtimizda boshlangan zamonaviy davlatchilik siyosatini amalga oshirish jarayonlari bilan demokratiyaning amal qilishi va rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim bo‘lgan jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning institutsional salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan–Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi [12].

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat siyosatining demokratik asoslari hamma jabhada izchil yangilanib bormoqda. Bu borada jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish, davlat siyosatining shakllanishi va amalga oshirilishida jamoatchilik tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish, demokratik institutlarning faoliyatini tashkil qilish tamoyillarini takomillashtirish uchun muhim qadamlar tashlandi.

Jamiyatda keng ko‘lamli va zamonaviy demokratik islohotlarning amalga oshirilishi uchun bevosita mamlakat siyosiy tizimi va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish printsiplaridan jamiyatda demokratiya manfaatlari va ehtiyojlariga yo‘naltirilgan siyosiy o‘zgarishlar jarayonlariga asos solinishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мельвиль А., Алексеева Т. и др. Политология. - М.: “МГИМО”, 2008. 624 стр.
2. Назарчук А. Социальное время и социальное пространство в концепции сетевого общества//Вопросы философии. 2012. №9.
3. Полис. 1999. №2..
4. Kurbanov E.E. Modern foundations of democratization of state institutions. // Paradigmata poznani.Praga.I.2022.
5. Ачкасов В., Гуторов В. Политология. - М.: Высшее образования, 2006. 980 стр.
6. Xalq so‘zi. 2016-yil 6-dekabr. N 241 (6676).
7. Jo‘rayev N. Tamaddunga da’vat. - T.: “O‘zbekiston” MCHJ. 2018. – B.261.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2016. 56 b.
9. https://yuz.uz/news/sohibqiron-siymosiga-ehtirom-yohud-adolat-har-bir-ishda-hamrohimiz-va-dasturimiz-bolsin
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. 592 b.
11. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri). 2017 yil 11 sentyabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz. https://lex.uz/docs/3336169
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son).